

ZIZIPHORA TENUIOR O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

A.Hojiyeva

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

O.Xurramov

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada cho'lyalpiz (*ziziphora tenuior*) o'simlikning tarqalishi, uning tarkibi, tuzilishi biologik faolligi, ekologiyasi uning foydali va dorivor xususiyatlari haqida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Ziziphora* efir moyi, alfapinen, taninlar, terapiya, revmatizm, bakteritsit, nevrasteniya, diareya, stomatologiya, xirurgiya, nevrologiya, dermatologiya, pediatriya, kardiologiya, kosmetika, gastralgiya.

Аннотация. В этой статье представлена информация о распространении растения пустырник (*ziziphora tenuior*), его составе, строении, биологической активности, экологии, его полезных и лечебных свойствах.

Ключевые слова: зизифора эфир мой, алфапенин, танин, терапия, ревматизм, бактериит, невращения, диарея, стоматология, операция, неврология, дерматология, педиатрия, кардиология, косметика, гастралгия.

Annotation. This article presents information about the distribution of Chola-ALP (*ziziphora tenuior*) plant, its composition, structure biological activity, ecology its beneficial and medicinal properties.

Keywords: *ziziphora* ether, alfapinen, tanin, therapy, rheumatism, bacteritis, neurasthenia, diarrhea, dentistry, surgery, neurology, dermatology, pediatrics, cardiology, cosmetics, gastralgia.

Cho'lyalpiz *ziziphora tenuior* - o'simligi dekorativ va dorivor xususiyatlari, efir moyiga boy va shuningdek, xushbo'y o'simlik hisoblanadi. Bu o'simlikning poyasi shoxlangan yoki tekis bo'ladi, bunday poya kalta tuklar bilan qoplangan. *Ziziphora* yupqa, balandligi 5-30 sm keladigan bir yillik o't. Barglari oz, uzunligi 0,7-2,5 sm, lansetsimon tuksiz yoki dag'al. Gullari och binafsha rangda, kalta poyalarda, zich boshqosimon to'pgullarda to'plangan. May-iyun oylarida gullab, avgustda urug'i pishadi. Mevasi yong'oq meva.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Ekologik xususiyatlari: U Rossiyaning Yevropa qismida, G'arbiy Sibir, Ukraina, Kavkaz va O'rta Osiyoda uchraydi. Toshli, gil yon bag'irlarida, daryo qirg'oqlarida, dashtlarda, chala cho'llarda, chakalakzorlarda, madaniy tuproqlarda o'sadi. Bu o'simlik katta harorat va quyosh yorug'ligi talab qilmaydigan joylarda ham o'sadi. *Ziziphora tenuior* suvli joylarga ehtiyoji yuqori[1,3].

Kimyoviy tarkibi: Ildizlarida organik kislotalar 0,39%, efir moyi 0,35%, saponinlar, alkaloidlar 1,08 %, C vitamini, taninlar 0,05%, flavonoidlar aniqlangan. Efir moyi 0,9-2,49 % tarkibida, alfapinen, beta-pinen, limonen,

menton, izomenton 27-28%, neoizomentil asetat, bungeon kislotasi 0,45%. Uning havo qismida 0,8-1%efir moyi mavjud bo'lib asosiy komponenti pulegone 75-80%. Urug'ida yog'li moy, gidrolizatda palmitik, stearik, oleyk, linoleik, taninlar, linolenik kislotalar borligi bilan birga, barglarida mentol, spirt va fitonsidlar, shuningdek ildizlarida askorbin kislotasi borligi aniqlangan[2,4].

Dorivorlik xususiyatlari tibbiyotda:

Terapiyada: Ziziphora tenuior o'simligining mevalari, o't sharbati va o'tlaridan foydalanib, revmatizm va tish o'grig'i shamollashlarda foydalaniladi.

Farmakologik ta'siri: Yurak-qon tomiri kasalliklari, nafas yo'llari infeksiyalari, oshqozon va ichak sanchig'i va boshqalar uchun qo'llaniladi. Turkmanistonda o'tlarning infuzioni nevrasteniya, ichak sanchig'i va diareya uchun kardiotonik vosita sifatida ishlatiladi[1,3,4].

Stomatologiyada: antioksidant xususiyati tishlarni milk kasalliklarini davolashda foydalaniladi.

Xirurgiyada: yaralarni davolashda bakteritsid vosita sifatida qo'llaniladi.

Nevrologiyada: asab kasalliklarini davolashda tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi.

Dermatologiyada: quruq va teri kasalliklarini davolashda eng yaxshi antipruritic xususiyatlariga ega. Bu dermatit, egzema, psoriasis, akne, shuningdek, ekstremlari terini yumshatish, tozalash va terini yangilaydi.

Pediatriya sohasida: bolalarda qonning to'qimalarini kuchaytirish xususiyati tufayli ko'plab kasalliklarni davolashda muhim o'rin egallaydi.

Kardiologiya sohasida: qon-tomir kasalliklarini, yurak mushaklarining oziqlanishi va uning funkcionallagini mustahkamlaydi.

Kosmetikada: o'simlik tarkibidagi efir moylari terini parvarish qilish va soch to'kilishini kamaytiradi. Sezuvchanlikni pasaytiradi, sochni qalin va mustahkam qiladi.

Dorivorlik xususiyatlari xalq tabobatida: o'pka sili va gastralgiyada kuniga 2-3 marta 1 desert qoshiq sharbati ichiladi, o'tdan tayyorlangan qaynatma kardiotonik, oshqozon davosi, bolalar uchun tonik sifatida infuzion, mevalardan qaynatma sifatida ishlatiladi.

NARMed o'simlikning havo qismidan olingan damlama kompresslar va aromatik vannalar uchun ishlatiladi. Bu o'simlikdan tayyorlangan damlamalar nojo'ya ta'sirlar aniqlanmadi, balki, gipotenziv va diuretik ta'sirlar davolashni optimallashtirdi. Ziziforaning hidi yalpiz o'simligiday kuchli ekanligi, o'simlik choylariga kiritilgan. Hatto o'simlikda rak saraton hujayralarini yo'qotishiga ega[1,4].

Ziziforaning shifobaxsh xususiyatlari: Ayollar va erkaklar uchun ziziforaning foydali jihatlari, ulardan tayyorlangan mahsulotlar

- Gormonal fon barqarorlashadi
- asab tizimining holatini yaxshilaydi
- PMS ning og'irligi pasayadi

-yurak-qon tomir kasalliklari

-asab kasalliklari

Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar: Ziziphora o'simligidan mahsulotlaridan foydalanishni boshlashdan oldin, ulardan foydalanishda hech qanday cheklovlar yo'qligiga ishonch hosil qilinadi.

-12 yoshgacha bo'lgan bolalar

-homilador ayollar

-emizikli onalar

-allergiyasi bor kishilar

Xulosa qilib aytganda, o'simlikning 3-4 oy davomida muntazam ravishda qabul qilish, ayniqsa, immunitetni yig'ish bilan birgalikda, yengil sedativ, bosimni pasaytiradigan, diuretik ta'sirga ega. Shuningdek, nafas yo'llari kasalliklari astma, bronxitni davolash mumkin. Hozirgi kunda bu o'simlikni madaniylashtirish uchun tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Inson ehtiyojlari kun sayin ortib borishi bilan birga tabiiy holda tayyorlanadigan dorivorlarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Tabiat in'om etgan ne'matlardan tayyorlangan dori-darmonlar sun'iy ravishda olinadigan dorilardan afzalligiva ekologik tozaligi bilan ajralib turadi. Kimyoviy ishlov berilgan sifatsiz dorilardan ko'ra, tabiiy o'simlik damlamalari va choylarini qabul qilish foydali. Dorivor o'simlikning ta'sirchanlik quvvati hamda yuqori bo'lish davri ularning gullash hamda urug'lash davrining boshlanishi vaqtiga to'g'ri keladi. Dolzarb masalalardan biri tabiiy ne'matlarni asrash, o'sib kelayotgan yosh avlodga ma'naviy bilim berish tabiat ne'matlarini asrash tuyg'ularini shakllantirish asosiy maqsad deb qo'yildi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Nabiyev M. "Shifobaxsh o'simliklar" 1987-yil.
2. Karimov V., Shomahmudov A. "Xalq tabobati va zamonaviy ilmiy tibbiyotda qo'llaniladigan shifobaxsh o'simliklar" Toshkent, "Ibn Sino" NMB 1993-yil.
3. Jahon adabiyoti "Dorivor o'simliklar materiallarini farmakognostik tahlil qilish usullari"
4. Atabayeva N., Qodirxo'jayev O. "O'simlikshunoslik" Toshkent 2016-yil